

Buxoro davlat universiteti
Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Besh tashabbusning
uchinchisi “Kompyuter savodxonligi ” mavzusida o‘tkazilgan
davra suhbat

BAYONNOMA

24.04.2025 yil.

Fakultet kompyuter xonasi

Eshtildi:

BuxDU Agronomiya va biotexnologiya fakulteti tyutorlari tomonidan Talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 2.1-BIOT-24 va 2.1-SBA-24 guruh talabalari bilan uchinchi tashabbus "Kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish" maqsadida talabalar bilan kompyuter xonasiga tashrif buyurdilar.

Hozirgi kunda yurtimizda axborot texnologiyalariga bo'lgan talab yoshlar va aholi o'rtasida kompyuter savodxonligini oshirishni birlamchi vazifa qilib qo'yildi. Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkilotishga qaratilgan. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi Respublikamizning rivojlanishida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, buborada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamli bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qola-veradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi.





Bayonlashtirdi magistr:

Sattarov.A.A